

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA HARAKAT NOMI VA INFINITIV

Usanova Qademay Muratbay qizi
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika
instituti, Turkiy tillar fakulteti o‘zga tilli
guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi*

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. M. Xudayarova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida fe‘l so‘z turkumining qiyosi, uning turlari, harakat nomi va infinitiv, ularning yasalishi, o‘xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l, harakat nomi, infinitiv, negiz, harakat, holat, o‘xshashlik, yordamchi fe‘llar, hozirgi-kelasi zamon, qo‘shma kesim, nisbat, morfologik, sintaktik.*

Abstract. *In this article, the comparison of the verb word category in Uzbek, Russian and Karakalpak languages, its types, name of action and infinitive, their construction, similarities and differences were studied.*

Keywords: *verb, action noun, infinitive, base, action, case, similarity, auxiliary verbs, present-future tense, compound predicate, proportion, morphological, syntactic.*

Fe‘l – har 3 tilda ham grammatik kategoriyalarga eng boy, grammatik tabiati eng murakkab turkum hisoblanadi. Fe‘l so‘z turkumiga mansub so‘zlar jarayonni bildiradi.

Fe‘ning harakat, holat ma‘nosi uning maxsus grammatik kategoriyalari orqali ifodalanadi. Fe‘l har 3 tilda ham *daraja – залог – da‘reje, mayl – наклонение – meyl, zamon – время – ma‘ha‘l, shaxs va son – лицо и число – bet ha‘m san* kabi grammatik kategoriyalarga ega.

Fe‘l ma‘no jihatidan ko‘p qirraliligi, grammatik kategoriyalarga, shakllarga boyligi hamda gap tarkibida eng muhim o‘rin tutishiga ko‘ra barcha so‘z turkumlari orasida ajralib turadi. Rus tilshunosi akademik Peshkovskiy: „So‘z turkumlari planetalarga qiyos qilinsa, fe‘l ular orasida quyoshdir“ deb aytganida, albatta, haqli edi. O‘zbek tilida fe‘ning markaziy gap bo‘lagi sifatida qo‘llanishi ham buni isbotlaydi [5:110].

O‘zbek tilining xususiyatlaridan biri shundaki, fe‘ning negiziga *-moq, -sh, -ish, -v, -uv* affiksalaridan birini qo‘shish bilan harakat nomi yasaladi. Masalan: *yozmog, suz-ish, hayda-sh* kabi.

Rus tilidagi infinitiv esa fe‘ning dastlabki shakli bo‘lib, fe‘llar lug‘atga shu shakl bilan kiritiladi. Rus tilida fe‘l infinitivi *-mь, -mu, -чь* suffiksalaridan biri yordamida shakllanadi. Masalan: *работа-мь, чума-мь* kabi.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Qoraqalpoq tilidagi fe’lda esa *haraket ati* ma’no bildirmaydi, faqat ish-harakat holatining nomi bo’lib turadi. Bu fe’l formasining ko’pchilik qismi 2 so‘z turkumiga ya’ni fe’l va otga xos belgilarga ega bo’ladi. Ba’zilari esa faqat fe’lga taalluqli bo’lib keladi. Qoraqalpoq tilidagi fe’llar leksik-semantik tarafdin harakatning ma’nosiga, leksik-grammatik tarafdin bolımlı va bolımsız; awıspalı va awıspasız; da’reje, meyl, ma’ha’l, bet-san kabi kategoriylarga ega bo’lishi bilan farqlanadi.

O‘zbek tilida harakat nomining fe’llik va otlik xususiyatlari bor [1:55]. Ma’no jihatidan u harakatni bildiradi. O‘zgarish jihatidan esa otga o‘xshaydi, ya’ni ot kabi turlanadi. Masalan: yozish, yozishim, yozishda, yozishga, yozuv, yozuvning kabi.

Rus tilida infinitiv o‘zgarmaydi, ya’ni zamon, shaxs va son affikslarini qabul qilmaydi. Rus tilida fe’llarning infinitiv shaklidan *-ть, -ти* yoki *-чь* suffikslarini olib tashlasak, infinitivning negizi qoladi. Masalan: *чита-ть, пица-ть, виде-ть, гуля-ть, нес-ти, пой-ти, помо-чь* kabi. Infinitiv negizidan odatda o‘tgan zamon formasi yasaladi. Masalan: *чита-л, чита-ла, чита-ли* kabi.

Qoraqalpoq tilida harakat nomi, asosan, *-iw, -iw, -w, -maq/-mek (-paq/-pek, -baq/-bek), -gi/-gi, (-qi/-ki), -is/-is, -s* kabi sodda va *-g’anliq/-genlik, (-qanliq/-kenlik), -tug’inliq, -jaqliq, -arlıq, -erlik, -maslıq/-meslik, -mag’a/-mege, -arg’a/-erge, -masqa/-meske, -iwg’a/-iwge, iwda/-iwde* kabi qo’shma fe’llarga qo’shilishi orqali hosil qilinadi [4:174]. Bu fe’l formalarining ham ko’pchilik qismi o‘zbek tilidagidek 2 so‘z turkumi: fe’l va otga xos xususiyatlarga ega bo’ladi. Ba’zilari esa faqat fe’lga xos bo’ladi. Ularning faqat fe’lga xos turi infinitivga xos belgilarni bildiradi. Shu kabi o‘zgachaliklariga qarab, harakat nomi substantivlik (atawısh feyil) va infinitiv fe’llar bo’lib 2 guruhga bo’linadi.

Qoraqalpoq tilida harakat nomi fe’li semantik tarafdin 2 so‘z turkumining – fe’l va ot so‘z turkumlarining ma’nolariga barobar keladi. Uning fe’llik ma’nosi boshqa fe’l so‘zlar kabi ish-harakatning holatini bildirib, bo’lishli va bo’lishsizlik formalarida qo’llaniladi. Boshqa fe’l so‘zlar kabi ot so‘zlarni boshqarib, fe’l so‘z turkumini tuzadi. *Atawısh* so‘zlarga yaqinlik tarafi, ot so‘zlardek kelishik, ko’plik va shaxs-son affikslari bilan o‘zgarib, substantivlik ma’noga ega bo’ladi. Ot so‘z turkumidagi so‘zlar gapda qanday sintaktik xizmat qilsa, bular ham shunday xizmat qiladi. Shu taraflarni hisobga olib, qoraqalpoq tilida bu fe’llar atawısh feyillar deb nomlanadi. Harakat nomining substantiv formasi ya’ni atawısh fe’llar, asosan, so‘z yasovchi *-iw/-iw,-w; -maq/-mek; (-paq/-pek, -baq/-bek); -g’i/-gi (-qi/-ki); -is/-is, -s* kabi sodda va *-g’anliq/-genlik, (-qanliq/-kenlik), -tug’inliq, -jaqliq, -arlıq, -erlik, -maslıq/-meslik, -mag’a/-mege, -arg’a/-erge, -masqa/-meske, -iwg’a/-iwge, iwda/-iwde* kabi qo’shma fe’llarga qo’shilishi orqali hosil qilinadi. Bu fe’l formalari so‘z yasay

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

olishi, qo‘llanishi, ma‘nosi jihatidan har biri o‘ziga xos o‘zgachaliklari bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Qoraqalpoq tilida harakat nomining infinitiv formasi – “infinitiv” so‘zi lotinchadan infinitivus so‘zidan olingan bo‘lib, mayl, shaxs, son bo‘yicha “belgisiz fe‘l” degan ma‘noni anglatadi [6:97]. Hozirgi kunda bu termin rus va turkiy tillarida infinitiv yoki “fe‘lning belgisiz formasi” deb nomlanadi. Qoraqalpoq tilida ham boshqa turkiy tillar kabi harakat nomining *-iw/-iw, -w* formasi ataw formada bo‘lganida shaxs, son, mayl va zamon ma‘nolarini bildirmay, faqat ish-harakatning holatini nomini ko‘rsatsa, infinitiv ma‘nosida keladi. Masalan: *bariw, keliw, aliw, ketiw* kabi. *Bu forma kerek, tiyis, mumkin* kabi so‘zlar bilan birikib kelganida, uning infinitivlik ma‘nosi aniq bildiriladi. Masalan: *bariw kerek, barmaw kerek, keliwi tiyis, islewi mu‘mkin* kabi.

O‘zbek tilida *-moq* affiksi bilan shakllangan forma rus tilidagi fe‘lning noaniq formasiga eng yaqin turadi. Lug‘atlarda o‘zbekcha fe‘llar shu *-moq* formasida beriladi. Shu *-moq* affiksi olib tashlansa, fe‘lning negizi qoladi. Mayl, zamon, shaxs-son affixlari ana shu fe‘l negiziga qo‘shiladi. Masalan: *ishlamoq, yozmoq, ishlasa, yozsa, ishladim, yozdim* kabi. Shu kabi o‘xshashliklarga qaramay, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida rus tilidagi fe‘l infinitiviga to‘la mos keladigan shakl yo‘q.

Rus tilida fe‘llarning infinitiv negizidan tashqari, hozirgi zamon negizi ham mavjud. Masalan: *говор-ят, молч-ат, пишу-ют* kabi. Rus tili infinitivining buyruq ma‘nosi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi majhul nisbatdagi fe‘lning III shaxs buyruq shakli bilan ifodalanadi. Masalan: Bu yerda chekilmasin. – *Здесь не курить.* – *Bul jerde shegilmesin* kabi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, fe‘l so‘z turkumi har 3 tilda ham harakat va holatning ma‘nosini ifodalasa ham bir-biridan juda katta farqlar bilan ajralib turadigan so‘z turkumi hisoblanadi. Quyida biz fe‘l so‘z turkumining harakat nomi va infinitivini qiyosladik. Ko‘rinib turibdiki, rus tilidagi o‘zbek va qoraqalpoq tilidagi harakat nomiga va, aksincha, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida rus tilidagi infinitivga to‘la mos keladigan grammatik forma yo‘q. Faqat rus tilidagi infinitivning ma‘nosini o‘zbek va qoraqalpoq tilidagi fe‘lning boshqa grammatik formalari orqali anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov O. va boshqalar. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965.
2. Azizov O. va boshqalar. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
3. Bekbergenov A. Rus ha‘m qoraqalpoq tillerinin‘ salistirmali grammatikasi. – No‘kis: “Bilim” nashriyoti. 2006

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

4. Daʼwletov A. va boshqalar Haʼzirgi qaraqalpaq aʼdebiy tili. – Noʼkis: “Bilim” nashriyoti. 2010.
5. Muhiddinova X. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyoti. 2006.
6. Русский язык. Энциклопедия. – М.: изд-во. “Советская энциклопедия”, 1979. – В. 97.
7. Khodjaniyazov, E., Xudayarova, M. T., Yuldasheva, S. S., Buranova, S. M., & Kabulova, D. S. (2020). HISTORICAL BACKGROUND OF FOOD NAMES IN UZBEK DIALECT IN KARAKALPAKSTAN REGION. *Journal of Critical Reviews*, 7(18), 3564-3570.
8. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA SON SO ‘Z TURKUMI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(3), 7-9.
9. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).